



Mahallalarda “Adliya kuni” o’tkaziladi

2-betda o’qing ↗



Bizga avtobuslar torlik qilayaptimi?

3-betda o’qing ↗

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

2024-YIL
11-IYUN SESHANBA
№ 23
(1435)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



“ADOLAT” milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo’ling!



“Adolat nashrlari” telegram kanalida kuzating!



UMUMIY KELISHUVLAR AKS ETGAN QO’SHPMA BAYONOT IMZOLANDI

Joriy yilning 6-iyun kuni adliya vaziri A. Toshqulov onlayn tarzda o’tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) a’zo davlatlar adliya vazirlarining navbatdagi o’n birinchi yig’ilishida ishtirok etdi.

Vazir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan adliya va huquq sohasidagi islohotlar hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida ko’rilayotgan choralar, shuningdek, ShHTga a’zo davlatlar o’rtasida hamkorlik istiqbollari borasida nutq so’zladi.

Tadborda Qozog’iston, Qирғизистон, Тоҷикистон, Rossiya, Hindiston, Eron, Pokiston, Xitoy, Belarus adliya vazirlari hamda ShHT bosh kotibi o’rinbosari ma’ruza bilan ishtirok etdi.

ShHTga a’zo davlatlar adliya vazirlarining

navbatdagi majlisida a’zo davlatlar adliya vazirliklari faoliyatidagi yangi o’zgarishlar hamda ShHTga a’zo davlatlar adliya vazirliklari o’rtasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Yig’ilish davomida ShHTga a’zo davlatlar Adliya vazirliklarining yuridik xizmat va sud-ekspertiza faoliyatiga doir ekspertlar ishchi guruhlarining 2024–2026-yillarga mo’ljallangan chora-tadbirlar rejaliari tasdiqlandi. Shuningdek, ShHTga a’zo davlatlar adliya vazirlarining navbatdagi yig’ili shini tashkillashtiruvchi davlat hamda sanasi belgilandi.

Tadbir yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tomonlarning umumiy kelishuvlarini aks ettiruvchi qo’shma bayonet imzolandi.

O’z muxbirimiz



Tadbirkordan ortiqcha undirilgan mablag’ qaytarildi

6-betda o’qing ↗

@huquqiyaxborot

HUQUQIY DAYJEST

YANGI INSPEKSIYA TASHKIL ETILADI



Shu yilning 3-iyun kuni Prezidentimizning “Alkogol va tamaki mahsulotlari bozorini tartibga solish hamda ularning noqonuniy aylanmasining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to’g’risida”gi farmoni qabul qilindi

Farmonga ko’ra, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshida Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiysi (Inspeksiya) tashkil etiladi.

Shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlari ulgurji realizatsiyasiga oid shartnomalar soliq organlarida majburiy hisobga qo’yiladi.

Iste’mol etil sperti va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi har bir korxonaga department xodimlari biriktiriladi.

FAOL YORDAM BERGAN SHAXSLAR MUKOFOTLANADI

Davlatimiz rahbari 2024-yil 5-iyun kuni O’zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to’qnashuvni to’g’risida”gi qonunini imzoladi.

Qonun davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg’armalariga, shuningdek, ustaw fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Manfaatlar to’qnashuvini aniqlashda faol yordam bergen shaxslar mukofotlanadi.

HURMAT BILAN MUROJAAT QILISHI LOZIM

Qonunchilikka ko’ra, yo’l-patrul xizmati xodimi o’z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida har qanday vaziyatda yo’l harakati qatnashchilari bilan vazmin, xushmuomala, odobli va e’tiborli bo’lish, ularga hurmat bilan hamda “Siz” deb murojaat qilish, yo’l harakati qatnashchilari bilan o’zar munosabatlarda muomala madaniyatni va qonuniylikka rioya qilishga majbur.

Shuningdek, yo’l harakati qatnashchilariga ularni to’xtatish sababini, sodir etilgan huquqbazarlik yuzasidan aniq, lo’nda tushuntirish berishi kerak.

2 JARAYON

Joriy yil 24-mayda "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi Prezident farmoni e'lon qilindi.

Mahallalarda "ADLIYA KUNI" O'TKAZILADI



Farmon bilan adliya organlarining qo'shimcha 4 ta yangi faoliyat yo'naliishi belgilandi. Jumladan, aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etish, joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, fuqarolarga huquqiy masalalar bo'yicha birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatish, davlat organlari va mahallalar da yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda metodik yordam ko'rsatish borish belgilandi.

Qolaversa, quiy bo'g'in – adliya bo'limlariga 6 ta yangi vazifa yuklatildi. Ushbu vazifalardan ko'zlangan eng asosiy maqsad joylarda aholi ko'tarayotgan dolzarb muammolarni hal qilish, fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish, ularning huquqiy muammolarini mahallaning o'zida hal qilish hamda aholiga, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlashdir. Endilikda tuman va shahar adliya bo'limlari aholi muammolarini o'rganish va hal etish uchun har oyda mahallalarda "Adliya kuni" tadbirlarini o'tkazadi. Olis hududlardagi mahallalarda har oyda kamida ikki marotaba sayyor davlat xizmatlari ko'rsatib boriladi. Uyma-uy yurish va "Huquqiy ko'mak" aksiyalarini o'tkazish orqali fuqarolarning kundalik hayotida huquqiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqiladi.

Yana bir e'tiborli jihat, farmonga muvofiq, 2024-yil 1-iyuldan fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatishning yangi tartibi joriy qilinmoqda. Jumladan, davlat xizmatlari markazlarida "Maddad" NNTning huquqiy maslahat byurolari bosqichma-bosqich tashkil qilinadi. Huquqiy maslahat byurolari tomonidan aholiga bepul huquqiy maslahatlar beriladi. Mazkur byuro tomonidan nizolarni sudgacha va sud orgali hal etishda zarur bo'ladiqan protsessual hujjatlarni tayyorlashda ko'maklashiladi.


Vazirlik va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning 4 ta malaka oshirish markazlari birlashtirilib, Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etilmoqda. Shuningdek, vazirlikning "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi"

davlat muassasasi negizida Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baho-lash instituti tashkil etilmoqda.

Mazkur farmon bilan aholiga qo'shimcha yengillik va qulayliklarni joriy etish nazarda tutildi. Xususan, aholiga huquqiy yordam ko'rsatish borasidagi muammollar ni hal qilishda "fuqaro – mahalla – adliya" tizimi joriy etilmoqda. Bunda, aholining kundalik hayotidagi huquqiy muammollar "mahalla yettilig"lari orqali Onlayn mahalla platformasidan foydalanib adliya organlara yetkaziladi. Adliya organlari tomonidan esa mazkur muammollar yechimlari bo'yicha huquqiy tadbirlar, qonunchilikka takliflar ishlab chiqiladi. Shu orqali "mahalla yettiligi"ga fuqarolarning kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarini hal etib borishga ko'maklashib boriladi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, qonunchilik hujjalarni ijrochilarga yetkazish hamda ularning mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtaida tushuntirish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida "Mahalla huquqshunosi" loyihasi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mahallalarda haftaning har chorshanba kuni "Huquqiy targ'ibot kuni" etib belgilandi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri huquqiy madaniyatning yuqoriligi hisoblanadi. Umuman, huquq odamni madaniylashtiradi. Buning natijasida ijtimoiy barqarorlik kelib chiqadi. Shu bois, farmon bilan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlari va islohotlar mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishning yangi tartibi joriy etilmoqda. Farmon bilan markazlar orqali yana 13 ta yangi xizmatlar joriy etilmoqda. Davlat xizmatlarining har bir mahalla va fuqaroning hayotiga yanada yaqinroq kirib borishini ta'minlash maqsadida tadbirkorlarga ham agent sifatida 15 turdag'i davlat xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat berildi.



Face ID

Yana bir qulaylik davlat xizmatlarini ko'rsatishda Face-ID tizimi joriy qilinishidir. Face-ID tizimi – bu biror davlat xizmatidan foydalanmoqchi bo'lgan fuqaroni uning yuzidan tanib, u haqidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda aniqlaydigan tizim hisoblanadi. Hozirda fuqarolar davlat xizmatlari markaziga kelganda uning shaxsini aniqlash uchun pasport yoki ID-karta talab qilinadi. Endilikda, Face-ID tizimi joriy etilsa, ushbu hujjatlarga ham zarurat bo'lmaydi, tizimning o'zi fuqaroning kimligini aniqlab beradi.

Ushbu o'zgarishlar, albatta, fuqarolarning vaqtini va mablag'i tejashta xizmat qiladi. Muxtasar aytganda, mazkur farmon adliya organlarining ko'proq odamlar orasida, mahallalarda bo'lib, ularning dardu tashvishlarini tinglab, muammolarini birgalikda hal etishga ko'maklashishida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

**Nilufar SATTAROVA,
Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi**

Har qanday davlatning jahon hamjamiyatida tutgan nufuzi uning intellektual kamoloti bilan belgilanadi. Konstitutsiyamizning 53-moddasiga ko'ra, "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalananish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi".

BOSHQARMA TASHABBUSI E'TIROF ETILDI



Jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan ma'lumki, mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda intellektual salohiyatning o'rni alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunlaridanoq intellektual salohiyatni oshirishning muhim qismi bo'lgan intellektual mulk huquqi siyosatiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ilm-fan sohasini isloh qilish taraqqiyotimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, jamiyat taraqqiyotida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda intellektual mulk obyektlari – ixtiolar, sanoat namunalari, foydali modellar va boshqalarni huquqiy muhofazaga olish hamda ularni tijoratlashtirish bilan jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish muhim o'r'in tutadi.

Shuning uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardoq 190 ta davlatni birlashtirgan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mutlaq a'zosi bo'ldi. 1993-yilda esa Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasiga qo'shildi.

Ma'lumki, tovar va xizmat ko'rsatish belgilari, ixtiro, foydali model, geografik ko'rsatkichlar hamda sanoat namunalarining boshqa obyektlari ro'yxatdan o'tkazilgan holda muhofaza qilinadi. Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar ro'yxatdan o'tkazilmaganda ham himoyaga olinadi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Intellektual mulk obyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, ularning huquqiy himoya qilinishi, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan talabnomalar topshirilishida amaliy yordam berib kelinmoqda.

Xususan, o'z tovar va xizmat ko'rsatish belgisi (brendi)ni va sanoat mulkining boshqa obyektlarini yaratib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga huquqiy yordam ko'rsatilmoqda. Natijada ko'plab tadbirkorlar tovar va xizmat ko'rsatish bo'yicha o'zlarining shaxsiy brendiga ega bo'lishdi.

O'zbekiston dunyo xaritasidagi davlatlar ichida tabiatan juda quay iqlim sharoitiga ega hududda joylashgan. Har bir viloyatda, tuman (shahar)larda, qishloq va ovullarda bir-biridan katta farq qiladigan geografik ko'rsatkichlar mavjud.

Xorazm viloyatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan geografik ko'rsatkichlar ancha. Tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deyiladi. Unda tovarning sifati, nom qozongani yoki boshqa xususiyatlari (tovarning xususiyatlari) uning geografik jihatdan kelib chiqishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Mazkur geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarishning tovarning xususiyatlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bosqichlari loaqla bitiasi amalga oshirilishi kerak.

FAO – BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti. FAO BMTning ochlikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni boshqaradigan maxsus agentlikdir. Tashkilotning maqsadi barcha uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlaridan mutazam foydalanishni kafolatlashdir. 195 ta a'zo (194 ta davlat va Yevropa Ittifoqi) bilan dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritadi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasi O'zbekiston Respublikasida geografik ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatda o'z ta'mi va ko'rinishiga ega bo'lgan "Gurvak", "Zar gulobi", "Qari qiz", "Tirish", "Beshak" qovunlari va "Lazer", "Alanga", "Avangard" guruchlari hamda "Hazarasp olmasi", "Yangiariq noki" kabi mevalar nomlari geografik ko'rsatkich sifatida talabnomalar topshirish va ro'yxatga olinishida ko'rsatgan faoliyi va tashabbuskorligi uchun "FAO" tomonidan e'tirof etildi.

**Nodir JUMANIYOZOV,
Xorazm viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i**

Hay-haylab, esingiz ketadi. Ba'zan haydovchi insof qilsa, (yo'l harakati qoidalariga zid bo'lsa-da!) svetoforga yetganda to'xtaganda, insof qilmasa, keyingi bekatda tushasiz. Bugun poytaxtimizdagi jamoat transportidan foydalananayotgan ko'pchilik yo'lovchilarning odatiy kuni shunday o'tmoqda.

Darhaqiqat, 2023-yilning 2-noyabrida AOKAda o'tgan matbuot anjumanida Transport vazirligi mas'ul xodimi poytaxtimizda avtobuslardagi elektron to'lov tizimi 80 foizga yetka-zilgach, chiptachilar xizmatidan voz kechilishini, ularning o'rniqa avtobus nazoratchilari faoliyati yo'iga qo'yili-shini, eng avvalo, aholining o'zida to'lov qilish madaniyati shakllanishi muhim ekanini aytgan edi.

Yo'l tariflari ham yangilandi, bar-chamiz bunga ham ko'nikdik. Lekin muammolar o'sha-o'sha. Ahvol o'zgargani sezilmaydi ham. Yangilanishlar sabab yangi muammolar paydo bo'layot-gani esa e'tiborga olinmayapti.

"ESHIK QIMMAT TURADI..." ODAM-CHI?!"

Avtobus bekatdan qo'zg'alay deganda soch-soqoli oqargan, lekin hali tetik, bardamgina otaxon tiqilinch bo'lsa ham, avtobusga chiqib oldi. Avtobusning old eshididan kiraverishda yo'lovchilar shunchalar ko'p ediki, otaxon chiqqach, eshik qarsillab yopildi.

– Sig'masangiz, tushib qoling, eshik qimmat turadi, – deb baqirdi haydovchi.

– Nega tusharkanman, qiziq gapi-radi-ya bu bola. Jahl qiladiya, – dedi otaxon.

Hamma ishdan qaytadigan vaqt bo'lgani uchun keyingi bekatda yo'lovchilar yana ko'paydi. Bu 148-yo'nalishda bo'layotgan hangoma. Avtobus mahalla oralab, uzoq yuradi, "iltimos bektarlarida ham to'xtayveradi. Otaxonning borar manzili ham olis ekan, odam kamay-gach, o'rtaoqqa o'tib, joylashdi. Endi manziliga yetib, yo'l haqini to'lab, tushaman, deganda haydovchini o'zi gapirib qoldi:

– Iya, haliyam shu yerdamisiz? Tushmadingizmi?

– Nega tushaman, nega tushishim kerak?! Hammaga shunaqa gapirasizmi?

– Ey, Siz o'zi hazilni tushunasizmi? Bu yo'nalishdagi odamlar yaxshi, tinch borib, tinch kelishadi. O'rtaoqqa o'tsangiz, joy berishardi.

– Shuncha ayol kishi turibdi, turtinib o'tamanmi, qiziq gapirasiz-a!

Otaxon jiddiy ohangda gapirib, pinagini buzmadi. Yo'l haqini uzatdi. Haydovchi olmasligini aytди.


– Oling, kasbimiz bir ekan, menam shu ishda 29 yil ishlaganman, asabingiz tamom bo'pti.

Shu gapdan keyin vaziyat sal yumshadi. Otaxon yengil tin olib, bir xo'rsindi-da, avtobusdan tushib qoldi.

"MENI PLANIM BOR!..."

"Meni planim bor!...". Shunday deb dag'dag'a qiladi 18-yo'nalishdagi avtobus haydovchisi yo'lovchi ayolga qarata baland ovozda o'shqirib. To'g'ri-da, kartadan to'lasangiz nima bo'pti?! Naqd pul to'laydiganlar qatorida navbat kutib, oldi eshikdan tushasizda.

"Garmoshka"li ulama avtobuslarni ko'rib, ana shunday xayolga borasiz. Lekin bu avtobuslar kichik sig'imli avtobuslardan birmuncha qulay. Sababi, ularning yo'lovchilar sig'imi ikki baravar katta. Bunday avtobuslarning qulayligi mayliku-ya, noqulayligini ham aytmasak bo'lmaydi. Tasavvur qiling, shunaqa "ulama avtobus"ga chiqib, manzilingizga yetib bo'lgach, yo'l haqini kartadan to'lab, bekatda tushib qolay, desangizu haydovchi orqadagi eshiklarni ochmay, hammani faqat oldingi eshikdan tushirsachi? Turtinib, surinib oldidagi eshikka yetguningizcha, tushishga shoshilayotgan yo'lovchilarni g'aflatda qoldirib, haydovchi gazni bosib qoladi-yu!"



Ayol bo'lsa, hayron. Unda ham re-jalar bor bir olam. Ishdan qaytyapti-yu xayoli bog'chadagi bolasida. Hali uya borib kechki ovqatni ham tayyorlashi kerak. Uning ham "plan"lari bor, vaqt judayam hisobli...

– Unda manovi narsa nimaga chiqarilgan?! – deydi ayol qo'lidagi yo'lovchi transport kartasiga ishora qilib.

Haydovchi ham bo'sh kelmaydi. Shart o'rnidan turib, hisob-kitobni to'xtatib, bor ovozda baqiradi.

Yo'lovchilar bir zumda ortga qayrilib, tortishayotgan ayolga norozi qiyofada boqishadi. Ayol esa o'ng'aysiz holatda qoladi. Na oldinga yurishini biladi, na gapirishini. Oxiri, o'zida kuch to'plab, yana jiddiy ohangda so'raydi:

– Unda mana bu matoh nima uchun chiqarilgan, nima qilib turibdi bu yerda?

U eshik oldiga o'rnatilgan terminalga ishora qiladi.

Haydovchi yengilganini, yo'lovchi haqligini tan olsigisi kelmasa-da, o'rta eshikni ochadi, harqalay. Avtobusning o'rta eshigi ochiladi. Orqadagi yo'lovchilar ham o'rta eshikdan tushib, nafas rostlashadi.

18-yo'nalishdagi avtobus haydovchisining talabi chindan ham g'alati. U avtobusning orqa va o'rta eshiklarini ochmasdan, ochiq-oqyin yo'lovchilarning, ta'bir joiz bo'lsa, iste'molchilarning huquqlarini poymol qilayapti.

Aksariyat yo'lovchilar ham bunga ko'nikan chog'i, lom-mim deyishmaydi. Og'ziga tolqon solinganday,

jimgina manzilga ketishadi.

Biz bu maqolada har kungi kuzatuvlarimizga asoslanib, o'zimiz yaxshi bilgan ayrim yo'nalishlarni tahlil qildik, xolos. Jamoat transportidan foydalanigan aholiga biz qalamga olgan mavzu juda yaxshi tanish. Ko'pchilik bu kabi holatlarga allaqachon ko'nib bo'lgan ham. Eng yomoni, bu kabi yo'lovchilar, ya'ni iste'molchilarning huquqi buzilishi holatlari tez-tez uchrayotgani va yo'lovchilar bunga oddiy holdek qarayotganidadir.

TALABALAR UCHUN ALOHIDA "TARTIB"

Shu o'rinda aholining jamoat transportidan foydalanishi sifatini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'paygani va ular birin-ketin o'z samarasini berayotganiga to'xtalsak. Xususan, sohaga raqamlashtirish tizimining keng joriy etilishi, elektron to'lov tizimiga o'tilishi bilan aholiga birmuncha qulayliklar yaratildi. Lekin amalda-chi? Amalda poytaxtimizda jamoat transportidan foydalanayotgan aholi nimadan rozi-yu, nimadan norozi?!

Yo'lovchilar bilan suhbatlashganimizda ko'pchilik elektron to'lov tizimlaridan unumli foydalanayotgani, bu ularga qulayligini aytdi. Ammo raqamlashtirish tizimi ishga tushgach, aksariyat avtobuslar chiptachi-konduktorsiz yo'lga chiqmoqda. Bu esa yo'lovchilarga birmuncha noqulaylik tug'dirmoqda. Noqulaylik shundaki, elektron to'lovi amalga oshirgan

yo'lovchi avtobusning o'ziga qulay bo'lgan qaysi eshididan bo'lsa ham tushib qola olmaydi. Haydovchilar faqat old eshikni ohib, yo'lovchilar ni shu eshikdan tushishga majbur qilishmoqda. Ayniqsa, odam gavjum bo'ladigan katta bektatlarda bunday holat kuzatilmoqda. Masalan, metro bektatlari yoki oraliqdagi yo'lovchilar ko'p harakatlanadigan joylarda, oxirgi bektatlarda shu holat kuzatilmoqda.

– Ko'pchilik haydovchilar orqa eshiklarni ochmaydi, – deydi o'zini Malika O'r'inboyeva deb tanishtirgan yo'lovchi ayol biz bilan suhbatda. – Bu narsa ishga shoshib turganingizda vaqtinigini oladi. Ayniqsa, yo'lida yana boshqa bir avtobusga almashishingiz kerak bo'lsa, bu narsa juda noqulay. Haydovchilardan eshikni ochishini so'rasangiz, baland ovozda gapirib, kayfiyatingizni buzadi. Hamma manziliga shoshiladi. Insofni o'zlariga bersin, deb rahbariyatiga shikoyat qilishga erinamiz, rosti.

– Qo'limda talabalik guvohnomam bor, lekin oylik chipta olmadim, – deydi Dilshod ismli talaba yigit. – Nega desangiz, sirtqi ta'limda o'qiyman. Sirtqi ta'limdagil talabalarga talabalar foydalanadigan imtiyozli kartalar so-tilmas ekan, surishtirsam, buni noqonunni deyishdi.

Darhaqiqat, talaba yigitning shikoyati o'rinni, nazarmida. Keyingi yillarda poytaxtimizda juda ko'p nadavlat olyi ta'lim muassasalari ochildi. Talabalar ularga to'laydigan kontrakt miqdori ham oz emas. Sirtqi ta'limda tahsil oladigan talaba ishlab, kontraktini to'lasinmi, mana shunday notengliklar uchun kurashsinmi? Surishtirib bilsak, qo'lida talabalik guvohnomasini bo'lsa ham, na iloj, talabalarning ko'pchiligi aholi foydalanayotgan transport kartalaridan foydalanishayotgan ekan. Talaba zotining dardini talabalikni boshidan o'tkazgan inson yaxshi biladi. Mas'ullar shu haqda ham o'ylab ko'rishsa, sirtqi yo'nalish talabalariga ham talabalar uchun chiqarilayotgan imtiyozli kartalar dan foydalanish imkoniyati yaratilsa, yomon bo'lmadsi. Sababi, shu yildan boshlab yangilangan tartibga ko'ra, sirtqi va kechki yo'nalishlarda ta'lim oladigan talabalarga ta'lim kreditlari ham berilmaydigan bo'ldi.

Yuqoridagi kabi holatlarni kuzatib, aslida bunday bo'layotganiga kim aybdor, deb o'ylanib qolasan kishi. Ba'zi birlarimizning loqaydigimiz, iste'molchi sifatida haqimizni talab qila olmayotganimiz ham bunga sababdir, balki?

**Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
"Inson va qonun" muxbirini**



4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA



MANFAATLAR TO'QNASHUVI HAQIDA XABAR QILGANLARGA MUKOFOT PULI BERILADI



Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya va-zirligiga fuqaro H. Kamalovaning farzandiga boquvchisini yo'qtganlik nafaqasi tayinlanishi amaliy yordam berishni so'rab yo'llagan murojaati kelib tushgan.



BOQUVCHISINI YO'QTGANLIK NAFAQASI TAYINLANDI

Aniqlanishicha, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rektorining 2023-yil 2-avgustdag'i "Talabalar qatoriga qabul qilish to'g'risida"gi buyrug'iga binoan, fuqaro H. Kamalovaning qizi E. Abadanova Qoraqalpoq davlat universitetiga to'lov-kontrakt asosida, kunduzgi ta'lif shakliga filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalihsiga 2022/2023-o'quv yilining 5-sentabridan boshlab birinchi kurs talabalari qatoriga qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 19-moddasida ta'lif tashkilotlarining o'quvchilari va talabalari o'qishning to'liq davri davomida, biroq 23 yosha to'lgunga qadar boquvchisini yo'qtganlik nafaqasini olish huquqiga egaligi ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 155-bandiga muvofiq, vafot etgan boquvchining ta'lif tashkilotiga o'quvchi yoki talaba sifatida qabul qilingan 18 yoshdan katta yoshdagi oila a'zosiga boquvchisini yo'qtganlik nafaqasi u o'quvchi yoki talabalar safiga qabul qilingan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to'la-nadi, deb belgilangan.

Yuqoridagilarga ko'ra, talabalar qatoriga qabul qilinan E. Abadanovaga 2022-yilning 5-sentabr kunidan boshlab birinchi bosqich talabalar qatoriga qabul qilinganini e'tiborga olgan holda fuqaro H. Kamalovaning 2004-yil 25-mayda tug'ilgan farzandi E. Abadanovaga 2022-yil oktabr oyidan boshlab boquvchisini yo'qtganlik pensiyasini to'lab berish imkoniyati bor yoki yo'q ekan haqida Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Budgetdan tashqari, Pensiya jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga xat chiqarildi.

Budgetdan tashqari, Pensiya jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2024-yil 11-martdagi xatiga muvofiq E. Abadanovaga boquvchisini yo'qtganlik pensiyasi 2022-yil 1-oktabrdan boshlab qayta hisoblanib, 2024-yilning aprel oyi to'lov buyurtmasiga asosan to'lab berilishi ma'lumot tariqasida bildirilgani sababli ushbu pensiya pullarini to'lab berish choralarini ko'rish bo'yicha Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga ijrosi ta'minlanishi majburiy bo'lgan taqdimnomma kiritildi va boquvchisini yo'qtganlik nafaqasi to'lab berilishi ta'minlandi.

Asilbek MOLDAXMETOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi
mas'ul xodimi

MUROJAAT SUD ORQALI HAL ETILDI



Mirobod tuman adliya bo'limining fuqaro-lik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga Shuhratjon Babadjanovning doimiy yashaganlik faktini belgilash to'g'risidagi murojaati sudning 2024-yil 6-maydagi hal qiluv qarori bilan qanoatlantirildi.

Sh. Babadjanov tuman adliya bo'limiga yozgan arizasida 1978-yil 16-mayda Tojikiston SSRda tug'ilgan, 1993-yilda Toshkent shahriga ko'chib kelib, Mirobod tumani, Munis ko'chasidagi 2-uyda yashab kelayotgani, 2000-2017-yillar davomida Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topilib, jazo muddatini o'tagani, 2017-yil ozodlikka chiqqandan keyin yuqorida qayd etilgan manzilda doimiy ro'yxatdan o'tib, yashab kelayotgani, 2019-yil 13-martda Z. Sulaymanova bilan qonuniy nikohdan o'tganini, ikki nafr farzandi borligini bayon qilib, 1993-yildan buyon Toshkent shahrida doimiy yashaganlik faktini belgilashni so'ragan.

Sud majlisi barcha vajlarni batatsil o'rganib, tegishli idoralarning arizani qanoatlantirishni so'rab bildirgan ko'rsatmalarini va arizani qanoatlantirilishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar mayjud emasligini inobatga olib, Sh. Babadjanovning Toshkent shahrida doimiy yashaganlik faktini tasdiqladi.

Abror BERDIYEV,
Mirobod tuman adliya bo'limi bosh
yuriskonsulti

SAQLANMAGAN ISH HAQIGA VAZIRLIKNING HUJJATI RO'KACH QILINDI

Fuqaro B. Sultonov Olmazor tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan holda qonunchilikda nazarda tutilgan o'rtacha ish haqi to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'ragan.



Holat o'rganilganda, fuqaro Mehnat bozori tadqiqotlari institutida kichik ilmiy xodim sifatida 2019-yil 15-iyuldan boshlab ishlab kelayotgani hamda Bank-moliya akademiyasining 2022-yil 15-sentabrdagi buyrug'iga asosan 2022-yil oktabr oyidan 2024-yil oktabr oyiga qadar Biznesni boshqarish magistratura yo'nalihsiga grant asosida o'qishga qabul qilingani, ammo, ish beruvchi tomonidan o'rtacha ish haqi saqlanmayotgani ma'lum bo'ldi.

Institut tuman adliya bo'limiga taqdim qilgan xatida esa ish haqi saqlanmasligiga Kambag'alilikni qisqartirish va bandlik vazirligining hujjati sabab bo'lganini bildirgan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 279-moddasida birinchi qismiga ko'ra, kafolatlari to'lovlar xodim ushbu kodeksga, boshqa qonunchilik hujjatlari-ga muvofiq mehnat majburiyatlarini bajarishdan

ozod qilingan yoxud o'z ixtiyoriga zid tarzda ish-lash imkoniyatidan mahrum bo'lgan vaqt uchun o'rtacha ish haqi yoki tarif stavkasi miqdoridagi pul to'lovidir.

Bundan tashqari, kodeksning 280-moddasi ikkinchi qismiga binoan ushbu muddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatlari to'lovlar dan tashqari ish beruvchi xodimlarga ushbu kodeksda, qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, shuningdek, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlar-da, mehnat shartnomasida belgilangan boshqa kafolatlari to'lovlarini amalga oshirishi shartligi belgilangan.

Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-iyuldag'i qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga tinglovchilarini qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 7-bandida magistratura, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lif olayotgan tinglovchilarining asosiy ish joyi va o'rtacha ish haqi miqdori o'qish muddati mobaynida saqlanishi mustahkamlangan.

O'rganish natijasiga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan B. Sultonovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga to'lab berilmagan jami 93 million 800 ming so'm ish haqi hamda ma'naviy zararni undirish to'g'risida da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan B. Sultonovga 108 million so'm to'lab berilishi ta'minlandi.

Sarvar NAZAROV,
Olmazor tuman adliya bo'limi boshlig'i

MAVSUMIY ISHLAR QANDAY RASMIYLASHTIRILADI?



– Xodimlar bilan mavsumiy ishlar qanday tartibda rasmiylashtiriladi?



– O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga asosan quyidagi ishlar mavsumiy ishlar hisoblanadi.

Iqlim va boshqa tabiiy sharoitlar tufayli muayyan davr (mavsum) davomida bajariladigan ishlar mavsumiy ishlardir. Mavsumiy ishlarning davomiyligi, qoida tariqasida, olti oydan oshmasligi kerak.

Mavsumiy ishlarning, shu jumladan, olti oydan ortiq davr (mavsum) ichida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ayrim mavsumiy ishlarning ro'yxatlari va mazkur ayrim mavsumiy ishlarning

eng ko'p davomiyligi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Shuningdek, ishning mavsumiy xususiyati to'g'risidagi shart mehnat shartnomasida ko'rsatilishi kerak.

Mavsumiy xodimlarni ishga qabul qilish chog'ida sinov muddati belgilanmaydi. Mavsumiy xodimlar bilan mehnat shartnomasi mavsumning davomiyligidan oshmaydigan mudatga tuziladi.

Mavsumiy xodimlar ishning har bir oyi uchun kamida ikki kalendar kun hisobidan haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega. Agar mavsumiy xodim to'liq mavsum ishlagan bo'lsa, unga keyinchalik mehnat shartnomasini bekor qilgan holda haq to'lanadigan mehnat ta'tili beriladi. Bu holda ta'tilning oxirgi kuni mehnat shartnomasi bekor qilingan kun deb hisoblanadi. Mehnat shartnomasi bekor qilinganda haq to'lanadigan mehnat ta'tili o'rniغا mavsumiy xodimiga uning xohishiga ko'ra pullik kompensatsiya to'lanadi.

Agar mavsumiy xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mavsum tugagunga qadar muddatidan oldin bekor qilinsa, mehnat shartnomasini bekor qilish chog'ida unga foydalilmagan mehnat ta'tili uchun ishlab berilgan vaqtga mutanosib ravishda kompensatsiya to'lanadi.

Mavsumiy xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi quyidagi tartibda bekor qilinadi. Mavsumiy xodim ish beruvchini uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirib, mehnat shartnomasini o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishga haqli.

Ish beruvchi mehnat shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish xususidagi o'z niyati to'g'risida mavsumiy xodimni:

- tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilishi munosabati bilan (ushbu kodeks 161-moddasiga ikkinchi qismining 1-bandi), shuningdek, xodimlarning soni yoki shtati o'zgarishi mun-

sabati bilan (ushbu kodeks 161-moddasiga ikkinchi qismining 2-bandi) mehnat shartnomasi bekor qilinganda kamida yetti kalendar kun oldin;

- mavsumiy xodim malakasi yetarli bo'Imaganligi sababli bajarayotgan ishiga nomuvofiqligi munosabati bilan (ushbu kodeks 161-moddasiga ikkinchi qismining 3-bandi) mehnat shartnomasi bekor qilinganda kamida uch kalendar kun oldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib ogohlantirishi shart.

Mavsumiy xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq asoslarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, mavsumiy xodim o'zi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishidan kamida bir kun oldin yozma shaklda ogohlantiriladi.

Mavsumiy xodimni ushbu moddining ikkinchi va uchinchi qismida nazarda tutilgan ogohlantirish o'rniغا ish beruvchi unga mutanosib pullik kompensatsiya to'lashga haqli.

Mavsumiy xodim bilan mehnat shartnomasi ushbu kodeks 173-moddasining ikkinchi qismida sanab o'tilgan asoslarga ko'ra bekor qilangan taqdirda, unga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizi miqdorida ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi.

**Najmiddin ESHMURZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
boshlig'i**

Sayxunobod tuman adliya bo'limi tomonidan tumanning "O'rikzor" mahallasiда yashovchi fuqaro Sh.Sh.ning O'zbekiston hududida doimiy yashaganlik faktini belgilashda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati o'rganildi.



BIR NECHA YILLIK SARSONGARCHILIK BARHAM TOPDI

Ma'lum bo'lishicha, Sh.Sh. 1988-yilda Tojikiston Respublikasida tug'ilgan, 1996-yil Sayxunobod tumani "O'rikzor" mahallasiga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan va 27 yildan buyon uzlusiz ushbu mahallada istiqomat qilib kelmoqda. O'tgan yillar davomida fuqaro X.U. bilan 2020-yilda qonuniy nikohdan o'tib, 4 nafar farzandni voyaga yetkazmoqda.

Fuqaroning bir necha yillardan buyon O'zbekiston Respublikasi pasportini olish yuzasidan tegishli tashkilotlarga qilgan murojaatlari besamar ketgan.

O'rganish davomida to'plangan hujjatlar asosida Sh.Sh. manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Sirdaryo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga ko'ra, 2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'Imagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

O'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'Imagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

Yuqoridagilarga asosan tuman adliya bo'limining da'vo arizasi qanoatlantirildi hamda sudning hal qiluv qarori bilan Sh.Sh.ning 1996-yildan buyon O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaganlik fakti belgilandi.

**Farhod SIDDIQOV,
Sayxunobod tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi**

TA'TIL PULI ISH KUNLARI UCHUN TO'LADIMI?



– Tibbiyot xodimi bo'lib ishlayman. Amaldagi Mehnat kodeksiga muvofiq ta'tilning davomiyligi kalendar kunlar asosida aniqlanishi lozim. Menga 24 kalendar kundan iborat ta'til berishdi. Korxonada 5 kunlik ish haftasi belgilangan. Ushbu vaziyatda ta'til puli ta'til davriga to'g'ri keladigan ish kunlari uchun to'lanadimi yoki 24 kalendar kuni uchun to'lanishi lozimmi?

**N. ERKINOVA,
Toshkent shahri**



– Ta'til kalendar kunlarda berilishiga qaramay, ta'til puli 6 kunlik ish haftasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi kalendar kunlarda hisoblab chiqariladi. Har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomiyligini belgilashda hisobga olinmaydi. Mehnat ta'tilda bo'lgan vaqt uchun xodimga Mehnat kodeksining 257-moddasiga muvofiq hisoblab chiqariladigan o'rtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanadi.

O'rtacha kunlik ish haqini aniqlash uchun 25,3 koeffitsiyenti qo'llaniladi. Bu o'rtacha ish haqi 6 kunlik ish haftasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishini ko'rsatadi. Shu bois, ta'til kalendar kunlarda berilishiga qaramay, ta'til puli 6 kunlik ish haftasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Savolga Sergeli tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti Iskandar RO'ZIBOYEV javob berdi

6 KO'ZGU

 - Menga oly o'quv yurtining xabarnomasi asosida o'quv ta'tili berildi. Ammo sog'lig'imda muammo bo'lib, o'qishga borolmadim. Endi menga mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida haq to'lanadimi?

Chori KABIROV,
Surxondaryo viloyati

MEHNATGA LAYOQATSIZLIK NAFAQASI TO'LANADIMI?



- Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 8-mayda 1136-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 22-bandiga ko'ra, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilgan;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilgani sababli ishlamagan;
- harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Mazkur davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Demak, e'tibor bering, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til – o'quv ta'tili davrida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asosida haq to'lanmaydi. Lekin o'quv ta'tili davrida boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi. Ya'ni, o'quv ta'tili tugagach, xodim bugundan ishga chiqishi lozim edi. Ammo kasallik davom etmoqda, shunda xodimga bugundan boshlab to tuzalgunga qadar vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik varaqasi asosida haq to'lanadi. O'quv ta'tili davridagi kasal kunlariga esa vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asosida haq to'lanmaydi.

Mirkarim OMONOV,
Oltinsoy tuman FHDY bo'limi
2-toifali inspektori

 Bugun tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoyalash sudlar zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, iqtisodiy sudlar zimmasiga bu borada katta mas'uliyat yuklangan.



TADBIRKORDAN ORTIQCHA UNDIRILGAN MABLAG' QAYTARILDI

Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudining "Prestij-Gaz" mas'uliyati cheklangan jamiyatni va "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyatni o'rtaida kelib chiqqan nizo bo'yicha qabul qilgan qarori ham fikrimizga misol bo'la oladi.

Gap shundaki, 2022-yil 18-martda taraflar o'rtaida "Avtomobilgara gaz to'dirish kompressor shoxobchalari uchun tabiiy gaz yetkazib berish haqida"gi shartnomaga tuzilgan. Shartnomaga asosan, "Hududgazta'minot" AJ 2022-yilning aprel-dekabr oylarida "Prestij-Gaz" MChJ-ga 2 million 400 ming kub metr (har oyda 300 ming kub metrdan) hajmda tabiiy gaz yetkazib berish majburiyatini olgan. Shuningdek, shartnomaning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan tomonlardan hech biri uni bekor qilish haqida murojaat qilmagan taqdirda, shartnomaga keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanishi ham belgilangan.

Bundan tashqari, shartnomaning 1.3-bandida iste'molchi yetkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga asosan kelgusi yilda gazga bo'lgan ehtiyojni taqdim etishi qayd etilgan. Binobarin, tadbirkorlik subyekti 2022-yilning 14-dekabr kuni gaz ta'minoti tashkilotiga 2023-yilning oylari bo'yicha taqsimlangan talabnomaga taqdim etib,

yanvar-fevral oylarida 440 ming kub metrdan, qolgan oylarda esa 400 ming kub metrdan jami 4 million 880 ming kub metr gaz ajratishni so'ragan. Biroq MChJning qarzi borligi sababli 2023-yil may oyi uchun 3 million 851 ming 561 so'm, iyun oyi hisobiga 97 million 746 ming 312 so'm, iyul oyi uchun esa 89 million 170 ming 86 so'm miqdorida 1,4 orttirilgan koeffitsiyent qo'llanilgan holda 190 million 767 ming 960 so'm tabiiy gaz haqi ortiqcha undirib olingan. Shu bois, "Prestij-Gaz" MChJ Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib, "Hududgazta'minot" AJdan ana shu mablag'ni undirib berishni so'ragan.

Ta'kidlash joizki, sudga taqdim etilgan hujjatlar va sud majlisida tekshirilgan dalillar chindan ham gaz ta'minoti mas'ullari yuqorida qayd etilgan mablag'ni tadbirkordan asossiz ravishda undirib olishganini tasdiqladi. Negaki, shartnomaning 4.8-bandida iste'molchi tomonidan gaz yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada hisob-kitob oyi davomida belgilanganidan ko'p hajmda va yetkazib beruvchi bilan oldindan kelishmasdan gaz olingan taqdirda, iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan gaz qiymatiga nisbatan 1,4 koeffitsiyent bilan oshirilgan to'lov undirilishi belgilangan. Vaholanki, gaz ta'minoti tashkiloti tomonidan tadbirkorlik subyekti shartnomadagi hajmlardan ortiqcha gaz yetkazib berilmagan.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 66-moddasiga muvofiq, ish bo'yicha dalillar ushbu kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan tartibda olingan faktlar haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular asosida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek, nizoni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Bunday ma'lumotlar yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari), guvohlarning ko'rsatuvlari, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari bilan aniqlanadi. Ana shu asoslarga tayangan sud da'vonni qanoatlantirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi.

**Alibek QODIROV,
Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi raisi**

Kafolatlangan BOLA HUQUQLARI



 Hayotimizning barcha jabhalari kabi bola huquqlari, ularning qonuniy manfaatlari huquqiy tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalarning ishlab chiqilishiga Konstitutsiyamiz asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mam-lakatimizda 1992-yil 9-dekabrda BMT Bosh Assambleyasini tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bolalarning huquqiy va ijtimoiy maqomini shakllantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Ushbu hujjat orqali O'zbekiston xalqaro konvensiya qoidalari va prinsiplariga rioya etish, bola huquqlarini himoya qilishning milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish bo'yicha majburiyatlarni hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari – bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniy manfaatlari belgilab qo'yilgan.

Xususan, Konstitutsiya, Oila, Fuqarolik, Mehnat hamda Jinoyat kodeklari va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar o'z ifodasini topgan.

Bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo'lida qator ijobiy ishlarni amalgao shirimoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Bola huquqlarining kafolatlari ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, amaldagi bir qator qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgani ham ana shunday islohotlarning mantiqiy davomidir.

Sudlarda har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega ekan alohida e'tiborga olinadi. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga egaligi va bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas, deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmasligining kafolatlari to'liq ta'minlangan.

**Jahongir BOBONAZAROV,
fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi
sudiyasi**

Oliy ta'lif muassasalarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tishi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, harakat, vaqt, mehnat, bilim va ko'nik-malarni talab qiladi. Bu borada Toshkent davlat yuridik universitetida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tirofga loyiq.

ENG YUQORI NATIJA KO'RSATGAN UNIVERSITET



Universitet Buyuk Britaniyaning QAA agentligi tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu strategik maqsad yo'lidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, QAA sifat mutaxassislari doktor Yue Song va Baholash xizmati rahbari Jennifer Teylorlar tomonidan joriy yilning mart oyida Toshkent davlat yuridik universiteti xodimlari va professor-o'qituvchilar uchun oliy ta'lif sifatini ta'minlash bo'yicha 5 kunlik seminar-treninglar o'tkazildi. Ushbu jarayondan ko'zlangan asosiy maqsad tashkilotning standartlari yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish va universitetning keyingi faoliyati rivoji uchun chora-tadbirlar rejasini belgilab olish bo'ldi.

Chet ellik ekspertlar tomonidan o'tkazilgan treningda nafaqat xalqaro akkreditatsiyadan o'tish bosqichlari tushuntirildi, balki, jarayonning muhim bosqichlaridan biri hisoblangan o'zini o'zi baholashning mezonlari, yevropa standartlari va yo'riqnomalariga oid dalillar hamda ularni taqdim etish tartiblari muhokama qilindi.

Trening jarayonida ishtirokchilarning olgan bilim va ko'nikmalar universitetni xalqaro miqyosida tan olingan standartlar asosida tashqi akkreditatsiyadan o'tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, hozirgi kunga Toshkent davlat yuridik universiteti ko'plab xalqaro reytinglarda ishtirok etib, erishgan faxrli natijalari bilan dunyo bo'ylab ta'lif tizimi miqiyosida e'tirof etib kelinmoqda.

Xususan, THE Impact Ranking – 2022 xalqaro reytingida universitet dunyoning 1 ming 100 ta davlatidan qatnashgan 1 ming 500 ga yaqin universitet orasida quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha TOP-500 ro'yxatdan joy egalladi:

- SDG 4: Quality Education (ta'lif sifati) – 401-o'rinn;
- SDG 8: Decent Work and Economic Growth (munosib ish o'rni va iqtisodiy o'sish) – 301-o'rinn;
- SDG 10: Reduced Inequalities (tengsizlikni qisqartirish) – 401-o'rinn;
- SDG 16: Peace, Justice and Strong Institutions (tinchlik, adolat va kuchli institutlar) – 401-o'rinn.

Shuningdek, universitet "World's Universities with Real Impact" (WURI) – 2022 xalqaro reytingida Fourth Industrial Revolution yo'nalishi bo'yicha 33-o'rinni egallab, TOP-50 ro'yatga kiritildi. (Ushbu reytingda 500 dan ortiq oliy ta'lif muassasalari ishtirok etgan bo'lib, 724 ta innovatsion loyihalar ko'rib chiqilgan). Reyting natijalariga ko'ra, Toshkent davlat yuridik universiteti quyidagi pog'onalaridan o'rinn egalladi:

- To'rtinchisi sanoat inqilobi bo'yicha innovatsion loyiha – 33-o'rinn;
- Sanoat dasturlari innovatsion loyihalari – 51-100-o'rinn;
- Yangi startap dasturlari va tadbirdorlik – 51-100-o'rinn;
- Axloqiy qadriyatlar bo'yicha innovatsion loyiha – 51-100-o'rinn;
- WURI global umumiyligi – 201-300-o'rinn.

Shuningdek, U-Multirank xalqaro reytingida (Germaniya xalqaro reytingi) ta'lif sifati bo'yicha mamlakatimizdagi eng kuchli universitet sifatida e'tirof etildi. Uning umumiyligi profili yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, umumiyligi 11 ta mezon bo'yicha "A" (juda yaxshi) ball bilan O'zbekistonda eng yuqori natijani ko'rsatgan universitet sifatida tan olindi.

U UI-Greenmetric – 2022 xalqaro reytingida esa Toshkent davlat yuridik universiteti 456-o'rinni egallab, oldingi yilga nisbatan 40 pog'ona yuqoriladi va TOP-500 talikdan o'rinn egalladi.

Asosiy yutuqlardan yana biri bu universitetimizning O'zbekistonda ilk marotaba QS Stars xalqaro reytingida 4 yulduzli universitet sifatida baholangan bo'ldi. Mazkur reyting universitetlarni o'qitish, tadqiqot, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlanganlik darajasi, xalqarolashuv, akademik rivojlanish, universitedagi qulayliklar, onlayn ta'lif, sohaviy reyting, o'quv dasturlari kuchi, innovatsiya, san'at va madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat va inklyuzivlik asosida baholaydi.

Xadicha SAYDULLAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina davlatning yoki muayyan bir tashkilotning vazifasi emas, balki bu keng jamoatchilikdan va har bir shaxs dan yuksak mas'uliyat hamda huquqiy bilimni talab etadi. Negaki, ayni illat butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib, davlatni ich-ichidan yemiradi.

KORRUPSIYA

JAMIYAT VA DAVLATNI ICH-ICHIDAN YEMIRUVCHI ILLAT



So'nggi yillarda mamlakatimizda korupsianing oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Qolaversa, ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimni yaratish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoxda. Xususan, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, keyinchalik – 2020-yil 29-iyunda Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning 81-moddasiga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga korupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ayni vazifa doirasida Agentlik vazirlik va idolarining korupsianing oldini olish hamda unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularning

birgalikda samarali faoliyat yuritishini tashkil etadi. Qolaversa, agentlik davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik, oshkoraliq, shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'iga qo'yish orgali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazortini amalga oshiradi. Buning uchun esa zarur sharoitlar yaratish bilan birmalikda, korrupsiyaviy xavflarni aniqlab va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilib boradi.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini xalqaro standartlar, qonunlar hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etish, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, korupsianing oqibatlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda minimum darajaga tushirish yuzasidan komplayens nazoratini amalga oshiradi.

Dono xalqimiz tarixni bilmay turib, kelajakni qurib bo'imasligini ko'p ta'kidlaydi. Shu bois, rivojlangan davlatlarning barqaror siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga nazar solar ekanmiz, komplayens nazorat tizimi zaruriyati mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporatsiyalarning tashkil etilishi bilan bog'liq ekaniga amin bo'lamiz.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, korrupsiya, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib kelishi bilan birmalikda, sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Fuqarolarda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda korupsianing rivojanishi uchun imkon yaratib beradi.

Jamiyatda ustuvor soha – ta'lif tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar, shuningdek, barcha fuqarolar ongida tolerantlikni uyg'otish orgali "Jamiyatda poroxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikri bartaraf etish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanini, korupsiya nafaqat davlatning yoki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun, balki har bir shaxsning hayotiga bo'lgan jiddiy xavfligini unutmashligimiz kerak.

**To'lqin TO'XTASINOV,
huquqshunos**

E'LONLAR

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi qonuning 152-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 31-maydag'i 123-um-son buyrug'i asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius N. Muxamedovaga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 (bir) oy muddatga (2024-yil 3-iyundan) to'xtatildi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 7-iyundagi buyrug'i bilan "ADOLAT MANZILI" advokatlik firmasi advokati Tilloyev Izatillo Ziyodulloyevichning boshqarma tomonidan 2018-yil 25-dekabrdan berilgan advokatlik faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi L-70662106-sonli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi (advokatlik guvohnomasi

№001655-sonli, 02.11.2023-y.) uning arizasiga muvofiq tugatildi.

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning 152-moddasiga va Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2024-yil 31-maydag'i 5-son yig'ilish qaroriga asosan Kitob tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Axbatov Ravshan Rustamovichga (litsenziya KS 0052, 2021-yil 3-noyabr) va Qarshi shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbanova Gulxayo Bahriiddin qiziga (litsenziya KS 0032, 2020-yil 27-aprel) boshqarma tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, 2024-yilning 3-iyun kunidan 2024-yilning 3-iyul kuniga qadar to'xtatildi.

8 HUQUQ OLAMIDA

 Yaqinda Adliya vazirligi tashabbusi hamda Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda respublikamizning barcha hududlari aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ularda vatamparvarlik ruhini qo'shish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish maqsadida "Men o'zbekistonlikman!" shiori ostida keng qamrovlari loyiha amalga oshirildi.

Loyiha doirasida 250 dan ortiq ta'lum muassasalari, korxona va tashkilotlar, harbiy qismlari, manzil kaloniyalari hamda aholi yashash manzillari qamrab olindi. Shuningdek, viloyat adliya boshqarmalari mas'ul xodimlari, Toshkent davlat yuridik universitetining 14 nafr professor-o'qituvchilari va 88 nafr talabalari tomonidan yurtimiz bo'ylab 56 ming 300 nafardan ortiq aholi, xususan, yoshlar ishtirokida 234 marotaba uchrashuv tashkil etildi. Bunda nafaqat huquqiy targ'ibot amalga oshirildi, balki yoshlarni tadbirdorlikka chorlash, startap loyihamalar va ularni moliyalashtirishda berilayotgan katta imkoniyatlar hamda kafolatlar, qolaversa, aholi o'rtaida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida "Intel-lektual marafon" o'yinlari ham o'tkazildi. G'oliblar Adliya vazirligi hamda Toshkent davlat yuridik universitetining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

"MEN O'ZBEKISTONLIKMAN!"

Shuni e'tiborga olish kerakki, bu kabi loyihamalari amalga oshirishda Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarining ishtiroki juda muhim. Chunki tengdosh tilini tengdosh tushunadi. Axir, yoshlarga o'zlarini tengqur faol yoshlar huquqlari va imtiyozlarini, imkoniyatlarini tushuntirsa, yanada ta'sirchan bo'ladi. Deyarli 20 million yoshlari bo'lgan mamlakatimiz uchun bu yo'sindagi tadbirdilar juda muhim sanaladi. Chunki yoshlarda islohotlarga daxfordorlik hissini uyg'otish Yangi O'zbekistonning uzoq yillik strategiyalari amalga oshirishda eng muhim vositadir.

Mazkur loyihamada biz – Toshkent davlat yuridik universitetining ko'ngilli talabalarini tengdoshlarimizga huquqiy tushuntirishlar berishda adliya xodimlariga ko'maklashdik. Masalan, men Farg'onan viloyatidagi ta'lum muassasalari, monomarkazlar, hunarmandlar markazlari, mahalla fuqarolar yig'inlarida o'tkazilgan 19 ta tadbirda ishtirok etdim. Shunda hali yoshlarda huquqiy savodxonlik darajasi yetarli emasligi, qolaversa, ular joylardagi hokim yordamchilar faoliyatidan qoniq-mayotganiga guvoh bo'ldik. Biroq, boshqa jabhalarda, chunonchi, davlat siyosatiga nisbatan o'z munosabatini bildirish, qonun ijodkorligi jarayoniga qiziqish kabi muhim masalalarda aholimiz, ayniqsa, yoshlar qatlami juda faol. Ularda davlat xizmatchisi bo'lish ishtiroq esa o'z navbatida, yoshlar vatanimizning kelgusi taqdiringa befarq emasligini anglatadi.

Jasurbek NABIJONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
3-bosqich talabasi



Eduard Mansurov 1944-yilda Namangan shahrida tavallud topgan. 1978-yil Toshkentdag'i SSSR Ichki ishlar vazirligi Oliy maktabini tamomlagan. Umrining ko'p qismini ichki ishlar idoralarida turli lavozimlarda xizmat qilishga bag'ishlagan fidoiy huquqshunosning ibratlari va mazmuni hayot yo'li, o'rganishga arziyidigan katta tajribasi bor.

Jinoyatchilikning oldini olish yo'lida viloyat huquq tartibot idoralari bilan hamkorlikda ish olib bordi. Muhim topshiriqlarni bajarishni o'zining Vatan oldidagi muqaddas burchi deb bildi, harbiy qasamyodiga hamisha sodiq qoldi. Yorug' yuz va izzat-ikrom bilan nafaqa-chaqdi.



Butun umr xalqqa xizmat qilgan, yuragida o'ti, qalbida katta shijoati bor salohiyatlari, tajribali inson uyda o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. Qahramonimiz 2001-yildan boshlab Namangan shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius sifatida faoliyatini davom ettirdi. Yana odamlarning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ldi, fuqarolarga huquqiy yordam berishdan charchamadi. Nizoli masalalarni ko'tarib huzuriga ilinj bilan kelganlardan yordamini ayamadi, muammolarga to'g'ri yechim topib berishga harakat qildi, elning duosini oldi.

Eduard Mansurovning ibratlari hayot yo'li bugun ko'pchilik yoshlarga saboq maktabi. Tajribali huquqshunos bilan bo'ladigan har bir uchrashuv esa o'ziga xos dars. Umrining har lahzasini qadrlayotgan, to'plagan bilim va tajribasini ezgulikka sarflayotgan faxriyimiz Eduard Hamdamovichga ulug' yoshingiz qutlug' bo'lsin, deymiz.

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbirini

IBRATLI HAYOT YO'LI

Mehnat faoliyatini Namangan shahridagi avtobaza oddiy haydovchilikdan boshlagan o'n yetti yoshli yigitning yuksak orzulari, Vatanga sadoqati, albatta, unga qanot bo'ldi. Harbiy xizmatni o'tab qaytgach, o'qib, izlanib, Namangan shahar ichki ishlar bo'limida inspektor, Namangan viloyat ichki ishlar boshqarmasi tergovchisi, bo'lim boshlig'i, To'raqo'rg'on tuman IIB tergov bo'linmasi boshlig'i vazifalarida uzoq yillar samarali mehnat qildi. Vatan osoyishtaligi, yurt ravnaqi, fuqarolar xavfsizligi yo'lida bor bilimi va tajribasini sarfladi, el koriga yaradi, hamyurtlariga kamarbasta bo'ldi.

O'ta og'ir jinoyatlarni ochish borasida yetarli tajriba to'pladi, jinoyatlarni kamaytirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishda alohida o'rnak ko'rsatdi.

"HUQUQIY TARBIYANING MAQSADI – QONUNGA ITOATKOR SHAXSNI SHAKLLANTIRISH"

 Bugungi turli manfaatlar to'qnashuvi avj olayotgan raqobatli dunyo sinovlariga faqat zamonaviy ilm-fan, bilim saviyasi yuksak, siyosiy va huquqiy tarbiyasi mustahkam, irodasi, tafakkuri kuchli, e'tiqodi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar teran shakllangan kishilargina dosh berishi mumkin. Bunda esa huquqiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos.

Huquqiy tarbiya murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Uning ta'rifi bu jarayonning qaysi tomonini, jumladan, umum-ijtimoiy jihatini, huquqning ijtimoiy amal qilish tizimi sifatida yoki davlatning ijtimoiy boshqarish, huquqburzalikning oldini olish elementi sifatidagi vazifasi va shu kabilarni tadqiq qilishga bog'liq bo'ladi. Huquqiy tarbiya deganda shaxsnинг ongiga tashkiliy sur'atda va aniq maqsadni ko'zlab ta'sir ko'rsatishning maxsus yuridik turi tushuniladi. U shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongiga ko'rsatiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sir jarayonidir.

Tor ma'nodagi huquqiy tarbiyada shaxslarning rasman yuridik o'quv yurtlarida oladigan huquqiy bilimlarining yig'indisi tushuniladi. Huquqiy tarbiya – shaxsnинг bir maqsad yo'lida, ongi ravishda jamiyat taraqqiyoti va siyosatidan kelib chiqib, olib boradigan bir tizimdag'i ijobji faoliyatidir. Huquqiy jihatdan shaxsnинг o'zini o'zi tarbiyalashi – bu ongli ravishda bir maqsad yo'lida, o'z fe'l-atvorida ijobji-huquqiy yo'nalishni shakllantirishdir.

Keng ma'nodagi huquqiy tarbiya esa shaxsnинг oila va bog'chada huquqiy bilim olishi, o'qishi, o'zining huquqiy bilimlarini mustaqil boyitishi, umuman, o'z ustida mustaqil ishlashi orqali olinadigan huquqiy

bilimlarining yig'indisidir. Shu bilan birga, huquqiy tarbiya – davlat organlari, nodavlat tashkilotlari, mansabdar shaxslar va alohida shaxslar guruhining aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maxsus faoliyati hisoblanadi.

Huquqshunos olima N. Sokolovaning fikricha, huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – qonunga itoatkor shaxsni shakllantirishdir. Bunda ma'naviy ideallar, huquqiy qadriyatlar, huquqiy bilim va tafakkur omuxta bo'lib, zarur huquqiy bilimlarni shaxs ongiga singdirishga harakat qilinadi.

Mamlakat hayotini modernizatsiya qilish bosqichida shaxsning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjud. Jumladan, oilalarda ayrim ota-onalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasi past. Huquqiy nigli-zimning kuchayishiga ta'sir ko'rsatuvchi uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya va poraxo'rlik illatlari bar-taraf qilinmagan. Qonunchilik tizimidagi bo'shilqlar, huquqdag'i ixtiloflar, ayrim ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solinmagan. Qonuniylik tamoyiliga yetarli darajada amal qilinmaydi. Chet el ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet orgali tarqatilayotgan, yoshlar ma'naviy-axloqiy va huquqiy barkamolligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham shular jumlasidandir.

Xullas, bugungi islohotlar jarayonida huquqiy tarbiyaning samarali shakllarini joriy etish, uning innovatsion usul va vositalardan unumli foydalanish huquqiy jihatdan bilimdon, komil insonni tarbiyalashdek ezu maqsadga xizmat qiladi.

Maqsudboy SADIQOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta
o'qituvchisi